

TALABALARGA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O`QITISHDA BADIYYATNING TUTGAN O`RNI (XITOIY TILI MISOLIDA)

Xushvaqтова E`tibor

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti

Sharq tillar fakulteti 2 - kurs talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada frazeologik birliklarda badiiyatning aks ettirilishi, frazalarning tilda tutgan o`rni, shuningdek, ularning xitoy va o`zbek tillarida taqqoslanishi tahlil etilgan.

Kalit so`zlar: Frazeologiya, frazeologik tasnif, obrazlilik ,ifodalilik, lug`at tarkibi, xitoy va o`zbek tilidagi frazalar.

Аннотация:

В данной статье анализируется выражение искусства во фразеологизмах, роль словосочетаний в языке, а также их сравнение в китайском и узбекском языках.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологическая классификация, образность, выразительность, лексика, стиль письма, китайские и узбекские фразы.

Annotation:

This column analyzes the expression of art in phraseological units, the role of idioms in the language, as well as their comparison in the Chinese and Uzbek languages.

Key words: Phraseology, phraseological classification, imagery, expressiveness, vocabulary content, writer style, Chinese and Uzbek phrases.

Kirish

Tilshunoslik bo`limlaridan biri frazeologiya bo`lib, bu bo`limda tilning lug`at tarkibidagi frazemalar haqida ma`lumot beradi. Frazema ko`chma ma`noli turg`un birikmadir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko`rinishining birikuvidan tashkil topgan, obrazli, ma`noviy tabiatga ega bo`lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog`i sifatida XX asrning 40 - yillarida rus tilshunosligida paydo bo`lganligi ma`lum. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Obrazlilik ko`pgina frazeologizmlarning asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi. O`zbek tilida obrazlilik, ifodalilik asosan metonimiya, o`shatish, qiyoslash, jonlantirish orqali namoyon bo`ladi. Bunda voqea-hodisa yoki ikki predmet ma`lum bir belgi asosida bir-biriga qiyoslanib, biri orqali ikkinchisining xususiyati kuchli ko`satiladi.

Bu qiyoslash ko`chma ma`no orqali ifodalanadi. Frazologizmlarning tarkibida nechta so`z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma`no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma`noni ifodalaydilar, shaklan o`zlariga o`xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so`zlarni erkin tanlash, almashtirish yo`li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma`no va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo`llanadi.

Iboralar ma`nodoshlik, antonimik xususiyatiga ham ega hisoblanadi.

Bir-biriga ma`nosi yaqin iboralar *ma`nodosh iboralar* ya`ni frazeologik sinonimlar deyiladi. Agar so`z va ibora ma`nodosh bo`lsa, bunda ular *leksik-frazeologik sinonimlar* deb yuritiladi. Masalan: *Tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq- Hafsalasi pir bo`lmoq, Tegirmonga tushsa ham butun chiqadigan- Suvdan quruq chiqadigan.*

Muhokama va natijalar. Qarama-qarshi ma`noli iboralar ya`ni ma`nosi bir-biriga zid iboralar *frazeologik antonimlar* hisoblanadi. Masalan: *Yerga urmoq- ko`kka ko`tarmoq, Yerga ursa ko`kka sapchiydi- qo`y og`zidan cho`p olmagan.*

Oddiy jumla yoki so`z jumlasida orqali ifodalangan nutq ifodasidan ko`ra frazeologizmlardan foydalanib, badiiyatni aks etsak, bunda nutqimiz yana ham rang-barang va chiroyliroq bo`ladi.

1. Bilgan o`zar, Bilmagan to`zar.

2. Oz gapir-Soz gapir.

Xitoy tilida ham o`zining madaniyatini, tilini namoyon qiladigan maqollari mavjud. Har qanday frazeologizm o`sha xalqning turmush sharoiti, udumlari bilan bevosita bog`liq bo`ladi. Masalan:

1. **有志者事竟成**- you zhi zhe shi jing cheng -bu iborani o`zbek tilidagi "*Qimirlagan qir oshar*" iborasiga tenglashtirishimiz mumkin. Ya`ni doim harakatda bo`lsang, albatta muvaffaqiyatga erishishing tayin. Shu sabab ham tinimsiz o`z ustida ishlagan kishi kam bo`lmaydi va albatta, muvaffaqiyatga erishadi.

2. **不足挂齿**- bu zu gua chi- Yaxshilik qilmoqchi bo`lsang oxirigacha qil va hamma bilishi shart emas degan ma`noda qo`llanilib, o`zimizga "*O`ng qo`ling berganini, chap qo`ling bilmasin*" deb tarjima qilsak to`g`ri bo`ladi.

3. **成则为王败则寇**- cheng ze wei wang bai ze kou- bu ibora yoki barqaror birikma, o`zbek tilidagi "*Muvaffaqiyatga erishsang shoh bo`larsan, Mag`lub bo`lsang mahbus bo`larsan*" iborasiga tengdir. Ya`ni muvaffaqiyatsizlikdan qo`rqmasdan olg`a borgan inson, albatta niyatiga erishadi ma`nosida qo`llaniladi.

4. **成也萧何 · 败也萧何**- cheng ye xiao he, bai ye xiao he- o`zimizdagi "*Yaxshi gap ham yomon gap ham, Bir og`izdan chiqadi*" ma`nosidagi iboraga mos keladi. Demak, yaxshi gapni ko`proq aytish atrofimizdagi insonlarda biz haqimizdagi fikrlari iliq bo`lishida asosiy rol o`ynaydi. Hamda o`zimizning ham kayfiyatimiz doim chog` bo`lib yurishini ta`minlaydi.

Xulosa

Madaniyati, tili, dini jihatidan bir-biridan tubdan katta farq qiluvchi xitoy va o`zbek tillarida ma`nosi mushtarak hamda muqobili mavjud bo`lmagan frazalar ham bor. Frazologizm va so`zlar bo`lmasa nutqimizda butunlik yo`qoladi. Tilning frazeologik xususiyati doimiy yangilanib, boyish xususiyatiga ega. Shu bilan birga, Frazologiyani ma`lum bir tilning xazinasini sifatida keltirishimiz mumkin. Chunki frazeologiya xalqning tarixini, madaniyatini va o`ziga xosligini ko`rsatadi. Frazologizmlarni o`qib o`rganish va ularni tahlil qilish ma`lum ma`noda o`z xalqining tili haqida ma`lumotga ega bo`lishiga bir qancha yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo`ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. - Samarqand,1998;
2. Yo`ldoshev B. Hozirgi o`zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: F.f.d. Avtoref. - Toshkent,1993.